

**DETEKTIV FANTASTIKANING ADABIY JANR SIFATIDA RIVOJLANISH TARIXI****Uzaqova Odinaxon Moxirjon qizi**Far DU ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasi o‘qituvchisi, [odi378808@gmail.com](mailto:odi378808@gmail.com)**Xoshimova Nargis Abdullayevna**FarDU ingliz tili o‘qitish metodikasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori,  
dotsent

**Annotatsiya:** Mazkur maqola detektiv janrning yuzaga kelish tarixi, uning adabiy janr sifatida shakllanish jarayonlari, jamiyatdagi o‘zgarishlarning janrga ta’sirlari, dunyoga mashhur detektiv yozuvchilarning ilk asarlari, qahramonlarining paydo bo‘lishi, detektiv janrning mazmunidagi tub burilishlar haqida ma’lumot beradi.

**Kalit so‘zlar:** detektiv fantastika, jinoyat, janr, qotillik, hikoya.

**Annotation:** This article provides information about the history of the emergence of the detective genre, the processes of its formation as a literary genre, the influence of changes in society on the genre, the first works of world-famous detective writers, the appearance of their heroes, fundamental twists in the content of the detective genre.

**Keywords:** detective fiction, crime, genre, murder, short story.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация об истории возникновения детективного жанра, процессах его становления как литературного жанра, влиянии изменений в обществе на жанр, появлении первых произведений всемирно известных писателей-детективов, их героях, коренных поворотах в содержании детективного жанра.

**Ключевые слова:** детективная фантастика, криминал, жанр, убийство, рассказ.

**Kirish.** Detektiv janri adabiy jarlarning nasriy turi ichida o‘zining jumboqlarga boyligi, emotsiyonal ta’sirining yuqoriligi bilan alohida auditoriyaga ega. Sir va uning yechimi bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar, syujetlar adabiyotda keng tarqagan, ammo detektiv fantastika taniqli janr sifatida ilk bor XIX asrning o‘rtalarida yuzaga kela boshladi. Ba’zi olimlarning qadimiy qo‘lyozmalar, diniy matnlarning ayrimlarini detektiv yo‘nalishning bir qismi deb taxmin qiladi. “The Old Testament story of Sussana and Elders” hikoyasida Daniyel so‘roq qilinayotgan jarayonda ekanligini guvohlar tasdiqlagan. Bunga javoban esa Yuliyan Saym “Bibliya va Geradotda faqat jumboqni yechish masalalari yoritilgan” degan fikrni ilgari suradi. U bu jumboqlarni detektiv hikoyalar sirasiga mansub emasligini qo‘sishma qiladi. [1]

Demak, detektiv fantastikani aniqlash hali hanuz ko‘plab baxslarga sabab bo‘lmoqda. Hatto uning tarixi ham munozarali bo‘lib, tanqidchilar detektiv fantastika elementlarini eng qadimgi yunon tragediyalari va ingliz adabiyotining ulkan namoyondasi Chauser bilan bog‘laydi. Muammoning bir qismi shundaki, “detektiv janr” toifasiga jinoyatchilik bilan bog‘liq barcha fantastik unsurlar va izquvarlik jarayonlari, jinoyatni oshkor etish bilan bog‘liq bo‘lgan detektiv ish bilan cheklanishi kerak.

**Adabiyotlar tahlili.** Ingliz dunyosining detektiv tarixi Edgar Ellan Poening 1841 yilda "The Murders in the Rue Morgue"[2] "Ru Morgdagi qotilliklar" nashri bilan boshlanadi, ushbu asarning

bosh qahramoni “eng dastlabki xayoliy detektiv, ajoyib Avgust Dyupin” ijod namunasi yuzaga keladi. Ushbu qahramonlar yaratilgan paytda hali “detektiv” atamasi ingliz tilida mavjud bo‘limgan. Ammo bosh qahramonning ismi “Dyupin” inglizcha so‘z sifatida “aldash, xiyla, nayrang” kabi ma’nolarni anglatadi. [3] Po bir necha unsurlani o‘zgartirish natijasida muvaffaqiyatli syujet yaratdi. Unga qo‘srimchalar berib asarni sayqalladi. [4] S. Ogyust Dupin odatda keyinchalik yaratilgan ko‘plab xayoliy detektivlar uchun prototip sifatida tan olinadi, shu jumladan, “Artur Konan Doyl” (Sherlok Xolms) va “Herkul Puar” (Agata Kristi). Konan Doylningi: “Poning detektiv hikoyalaring har biri butun adabiyotning rivoji uchun zamin bo‘la oldi... Agar Po bunday asarlar yaratmaganda, adabiyotning bir qismi bo‘lgan detektiv janri shakllanmagan bo‘lar edi”. Ushbu ta’riflar keyinchalik yozilgan hikoyalar va romanlarning yaratilishi uchun katta turtki bo‘lganligidan dalolat beradi.

Izlanishlar davomida nima sababdan eng dastlabki zamonaviy detektiv yo‘nalish Edgar Po nomi bilan izohlanishiga ko‘plab mulohazalar mavjud. Po deduktiv usulni ishlab chiqdi, ya’ni u mo‘jizaviy tushuncha, izohlarni hikoyalarda aks ettirdi. Bu deduktiv usul, mashhur detektiv Ogyust Dupin misolida sirli jumboqlarni g‘ayritabiyy qobiliyat bilan uning kelib chiqishiga oqilona tarzda yechim topa oladi.

**Muhokama va natijalar.** Yuqorida ta’kidlaganimiz kabi “buyuk detektivlar” ning eng mashhuri Artur Konan Doylning ijodidagi Sherlok Holms personaji, uning sodiq do’sti Uotson bilan birga ajdodi Dyupin kabi detektiv janrning porloq kelajagi uchun munosib qahramon sifatida gavdalantirilgan. Konan Doyl Holms bilan bog‘liq to‘rtta qisqa roman yozgan bo‘lsada, qahramon Sherlok Holms (do’sti Uotson tomonidan berilgan tasvirlarda) o‘zining farazlari va izlanishlari bilan muammoni aniqlik bilan hal eta olishi keng omma tomonidan katta taassurotga sabab bo‘lgan. Yozuvchi qahramon timsolida jinoyatni fosh etish, jinoyat uchun jazo muqarrarligi, o‘zi va o‘zi kabilarni ushbu jarayonda har vaqt muhim va yagona shaxs ekanligini ifodalaydi.

Holms tashqi qiyofasini va shaklini tez – tez o‘zgartiradi va ba’zan niqobda o‘zining jinoiy dushmanlari bilan muloqotda bo‘lishi uning serqirra ekanligidan dalolatdir.

Po – Doyl detektiv fantastika maktabi Amerikada 1920-yillarning oxiriga qadar va Angliyada esa Ikkinci Jahon urushigacha adabiyotning hukmron janri sifatida e’tirof etildi. Bu esa o‘z navbatida qisqa hikoyadan butun boshli romangacha bo‘lgan ulkan kashfiyotga sabab bo‘ldi. Jumladan, G. K. Chestertonning rohib ota Braun (deduksiya usulida), Doroti L. Seyrsning havaskor aristocrat Lord Piter Uimsey, Agata Kristining detektiv Marpl xonim hamda noyob qobiliyat egasi Erkyul Puar. Xususan, Kristining ishida qishloq uyi, chekka hududdagi ingliz qishlog‘i, uzoq masofali poezd yoki Nil daryosi kemasi kabi jinoyat sodir etilgan joylar va unsurlar muhim ahamiyatli hisoblanadi. Angliyada ushbu yo‘nalish uzoq muddat davomida ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. [5]

Klassik turdag‘i detektiv fantastika nafaqat Angliyada, balki Atlantika okeanining ikkala tomonida juda mashhur edi. Shu sababdan ham 1900 yildan 1940 yilgacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga olgan “Oltin asr” tarixda mashhur hisoblanadi. Amerikada Ostin Frimen o‘zining atoqli izquvari doktor Sorndayk qahramoni orqali XX asrning boshlarida yangi istiqbolli yo‘nalish uchun asos sifatida tan olindi. Yana bir ulkan namoyonda Uillard Hantingdn o‘zining Filo Vens obrazni

orqali detektiv janrda jumboq jarayondan ustunligini yaqqol isbotlab bera oldi. Keng omma uchun jumboqning yechimi hikoyadagi boshqa unsurlardan qiziqarli ekanligi janrning rivojiga sabab bo‘ldi.

Puxta o‘ylangan hikoylar, qat’iy qonun bilan tartiblanmagan tili tufayli, detektivning jumboqni talqin qilishdagi intellektual mahoratiga emas, balki uning va uning tajribalariga qaratilganligi bilan ommalashdi.[6] Ushbu turdagи detektiv fantastika o‘quvchini oddiy insonlar ham jamiyatdagi korrupsiya, mayda bezorilik kabi jinoyatlarga qarshi turishga, ular bilan kurashishga undaydi. Hikoyalar voqealar rivojining shiddati, zo‘ravonlik kabi illatlar peshqadamligiga asoslangan holda yaratildi. Endi qotillik sokin qishloq hayotining tasviri sifatida emas, balki haqiqiy odamlar bilan sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan realikka tayanadi. Jinoyat ilgarigidek qiziqarli va keng munozarali sifatida ommalashmadи. Uning o‘rnini inson hayoti, jamiyat uchun keltiradigan ayanchli oqibatlari, tanazullga yetaklovchi muammolarning mushohadalari egalladi. Albatta, ushbu yangi mavzu qisqa hikoyaning cheklangan maydonida cheklangan ta’sirga ega edi, [7] ammo 1920-yillarning oxiridan boshlab shu kabi asarlar detektiv romanlarda birinchi o‘ringa chiqdi.

**Xulosa.** Detektiv fantastika jamiyatning muayyan davr muammolariga munosabatini aks ettiruvchi janr sifatida 1990-yillardan boshlab juda mashhur janr sifatida ommalashdi. Shuningdek, u adabiy jihatdan qadrlana boshladи, xorijiy davlatlarning o‘quv dasturlari tarkibiga kiritiladi, badiiy jurnallarda ushbu yo‘nalishga oid maqolalar, Artur Konan Doyl va Chandler singari yetuk yozuvchilar “adabiy” asarlari nashr etiladi. Mazkur rivojlanish bu janrning hozirgi kunga qadar o‘z ahamiyatini yo‘qotmaganligiga sababchi bo‘ldi.

### Adabiyotlar ro‘yxati

1. Scaggs, John. Crime Fiction (The New Critical Idiom). Routledge. p. 8. 2005.
2. Silverman, Kenneth, Edgar A. Poe: Mourful and Never-ending Remembrance (Paperback ed.), New York: Harper Perennial, p. 171. 1991.
3. "A History of Detective Fiction: Literary Origins". [www.librarypoint.org](http://www.librarypoint.org).
4. Kismaric, Carole and Heiferman, Marvin. The Mysterious Case of Nancy Drew & The Hardy Boys. New York: Simon & Schuster, 1998. p. 56.
5. Klein, Kathleen Gregory. The Woman Detective: Gender and Genre. Urbana and Chicago, Illinois, University of Illinois Press, 1988.
6. Hoshimova, N. A. (2020). Ingliz va o‘zbek tillarining funktsional uslublari. Молодой ученый, (19), 584-585.
7. Kosimova, M. U. (2021). Different classification of functional styles. Ученый XX века. 4 (85).7-8.